



# Journal of Natural Sciences

№3  
(2021)

<http://natscience.jspi.uz>



<b><u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u></b>	<b><u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u></b>
<p><b>Бош мухаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор</li><li>3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор</li><li>4. Султонов М-к.ф.д, доц</li><li>5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.</li><li>6. Хакимов К –г.ф.н., доц.</li><li>7. Азимова Д- б.ф.н.</li><li>8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц</li><li>9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.</li><li>10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц</li><li>12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика</b> институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**KIMYO DARSLARIDA INDIVIDUAL GURUHDA ISHLASHDA MODUL  
DASTURLARIDAN FOYDALANISH**

**T.A.Jo'lboyev, M.M.Omonova, Z.Z.Ubaydullayeva**

**Аннотация-** Hozirgi kunda ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning faol bilim olishlarini tashkil etish va ta'lim tizimining demokratik tamoyillariga tobora keng yo'l ochib berish amaliy ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham an'anaviy tarzda o'qituvchining faolligi va barcha materialni tushuntirishga harakat qilishi bilan bog'liq bo'lgan darslarning o'rniga o'quvchining faolligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

**Аннотация-** Сегодня имеет практическое значение организовать активное обучение студентов через внедрение современных педагогических технологий в образование и открыть более широкий путь к демократическим принципам системы образования. Поэтому вместо традиционной активности учителя и попыток объяснить весь материал сегодня актуальна реализация уроков на основе современных педагогических технологий, связанных с повышением активности учеников

**Annotation-** Today, it is of practical importance to organize active learning of students through the introduction of modern pedagogical technologies in education and to open a wider path to the democratic principles of the education system. Therefore, instead of the traditional teacher's activity and attempts to explain all the material, the implementation of lessons based on modern pedagogical technologies related to increasing student activity is relevant today. is one of the issues.

**Калит сўз:** ta'lim-tarbiya, ko'nikma, malaka, metod, shakl, manba, bayon etish metodi, mustaqil ishlash metodi, spirt, karbon kislota

**Ключовой** слова: образование, умение, квалификация, метод, форма, источник, повествовательный метод, самостоятельная работа, алкоголь, углекислота

**Keywords:** education, skill, qualification, method, form, source, narrative method, independent work method, alcohol, carbonic acid

Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot- o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Dars jarayonida, ta'lim-tarbiyada o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta'lim jarayoni sub'ekti bo'lishi kerak, ya'ni o'qish, o'rganish, mutolaa qilish o'quvchi zimmasiga o'tishi lozim. O'qituvchi esa, bilim berishdan, o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashlariga ko'maklashishi zarur. Shunday ekan kimyo o'qitishda ham didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarining kimyoviy bilim, ko'nikma va malakalarni davr talabi darajasida shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni zamon talablari asosida puxta bilish va ko'nikmalarga ega, vatanparvar, manaviyati yuksak shaxs etib shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning beqiyos hissasi bor.

Kimyo fanini o'ziga xosligi unda kimyoviy tajribalar olib borilishi o'quvchilarni amaliy ko'nikma, malakarni rivojlantirishda nazariy bilimlarning rolini hisobga olgan holda didaktik o'yinlardan va boshqa bir qancha zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'zaro umumli foydalanish masalalari yoritilgan. Asosiy maqsadi umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ta'lim olish samaradorligini oshirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni didaktik o'yin texnologiyalardan umumli foydalanish qanday samara berishni aniqlashdan iborat.

O'quvchilarining kimyo fanidan bilim olish samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar- ta'lim jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo'yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi uzviy bog'langan komponentlar yig'indisidir.

Kimyo o'qitishning metodlari, shakllari, manbalari o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, kimyo o'qitish nazariyasining eng muhim bo'limlari sanaladi.

O'qitish metodi falsafiy nuqtai - nazardan ta'lim jarayonida ta'lim mazmunini harakatlantirish shakli bo'lib hisoblanadi. Agar predmetning mazmuni fanning didaktik ekvivalenti bo'lib hisoblansa, o'qitish metodlari o'rganilayotgan fan yoki bilish lozim bo'lgan narsalar metodlarining didaktik ekvivalentidir. Didaktikada fanni o'rganish metodlari va o'qitish metodlari mavjud.

Kimyo o'qituvchisidan o'quv materialini o'zi bayon etishi, o'quvchilarni ham mustaqil ishlashga o'rgatish talab etiladi. Shu talabga asosan kimyo o'qitishning metodlari 2 ga bo'linadi:

1. bayon etish metodlari.(monologik va diologik metodlar)
2. mustaqil ishlash metodlari.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilar ehtiyojidan va ijodiy ishga bo'lgan tabiiy intilishidan kelib chiqadi, sinfda o'tkaziladigan dastur materialining kamini to'ldirishga emas, balki uni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bunda, o'qituvchilarning mustaqil ish metodlariga tayanish ham kerak. Sinfdan



tashqari ishlarga- fakultativ mashg'ulotlar, ijodiy kechalar, to'garaklar, mustaqil ilmiy izlanish, kurs ishi, diplom ishi, referat, olimpiyadada, ko'rik -tanlovlarda qatnashish; ilmiy konferensiyada qatnashish; pedagogik amaliyot, kitobxonlar uyushmasi, bayramlar, mustaqillik bayrami, konsitutsiya kuni, har –xil mavzudagi qiziqarli kechalar; o'quvchilarning sevimli mashgulotlari ustida estafetalar kiradi.

Organik kimyo kursida masalan kislorod organik birikmalar mavzusini o'qitish quyidagi masalalarni hal etish asosiy maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni xal etildi.

- Ta'lim tizimidagi interfaol usullar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish.
- Spirtlar mavzusini o'qitish uchun modul ta'lim texnologiyasini yaratish.
- Spirtlar mavzusini o'qitish uchun o'quvchilarni kichik guruxlarda mo'jallangan ta'lim texnologiyasini yaratish.
- Spirtlar mavzusini o'qitish uchun xamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasini yaratish.
- Spirtlar mavzusini o'qitish uchun klaster usulini yaratish.
- Spirtlar mavzusini o'qitish uchun bumerang ta'lim texnologiyasini yaratish.
- Spirtlar mavzusini o'qitish uchun “Davom ettir” usulini yaratish.
- Karbon kislotalar mavzusini o'qitish uchun modul ta'lim texnologiyasini yaratish.
- Karbon kislotalar mavzusini o'qitish uchun FSMU ta'lim texnologiyasini yaratish.

Interfaol usullardan foydalanish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Zamonaviy dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni, interfaol ta'lim va uning mohiyati bo'yicha adabiyot va internet ma'lumotlari jamlandi va tahlil qilindi.

Ta'limda qo'llaniladigan interfaol usullar va ularni mohiyati bo'yicha adabiyot va internet ma'lumotlari jamlandi va tahlil qilindi.

Ta'lim jarayonlarida zamonaviy darsga qo'yiladigan talablar, interfaollik interfaol mashg'ulotning samaradorligi omillari tahlil qilindi.

Kislorodli organik birikmalar mavzusini o'qitish uchun modul va xamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasi yaratildi.

Kislorodli organik birikmalar mavzusini o'qitish uchun klaster usuli va bumerang ta'lim ta'lim texnologiyasi yaratildi.

Kislorodli organik birikmalar mavzusini o'qitish uchun davom ettir usuli va FSMU ta'lim texnologiyasi yaratildi.

Interfaol usullar kislorodli organik birikmalar mavzusini o’qitishda qo’llanildi va ularning amaliy ahamiyat ko’rsatildi, olingan natijalarga asoslanib bu zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshqa mavzularga ham qo’llashni tavsiya etildi.

Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g’oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan dars jarayoni ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda va barkamol avlodni tarbiyalashda amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko’rsatildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Islom Karimov “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelejagi yo’lida xizmat qilish -eng oliy saodatdir”. Toshkent - “Ozbekiston” – 2015
2. N.G.Raxmatullayev, N.T.Omonov, SH.M.Mirkomilov Kimyo o’qitish metodikasi.Toshkent. Iqtisod- Moliya -2013 yil.
3. A.Abdusamatov "Organik kimyo" Toshkent "Talqin" 2005 yil.
4. Z. Sobirov "Organik kimyo" Toshkent "Aloqachi" 2005 yil.
5. R.J.Ishmuhamedov, “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. Toshkent. TDPU 2004yil.
6. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta’limda innovasion texnologiyalar. . “Toshkent” 2008 yil.
7. T.A.Julboev, M.M.Sultonov, K.Abduvaliyeva. Teaching Chemistry computer software to students of chemistry in pedagogical higher education institutions. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 9 No. 3, 2021. ISSN 2056-5852.
8. Т.Жулбоев, Ш.Шарипов, Ш.Умаров. Кимё фанини ўқитишда кўрғазмали тажрибаларнинг ўрни. Тафаккур зиёси. Илмий – услубий журнал. ЖизДПИ.№4-сон. Декабр. 2019 йил. Жиззах.
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)